



“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vaziri
_____ D. Kuchkarov

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2026-yil uchun mo‘ljallangan
ISH REJASI

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
I. Vazirning birinchi o‘rinbosari – I.Norqulov				
Hududlarni kompleks iqtisodiy rivojlantirish departamenti.				
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-oktabrdagi PQ-298-sonli qarori asosida 33 ta tumanni va 330 ta mahallani “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi tuman va mahalla”larga aylantirish dasturlari bo‘yicha ishlarni tashkil etish.	1. 33 ta tuman (shahar)lar va 330 ta mahallalar bo‘yicha “Taraqqiyot va yetakchilik maskani” dasturiga kiritilgan loyihalarning amalga oshirilishini monitoring qilib borish; 2. Amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha har chorakda Vazirlar Mahkamasiga ma’lumot kiritib borish.	2026-yil davomida har chorakda	K.Taparov, Sh.Abduraxmonov, B.Gafurov
2.	Hududlarda iqtisodiy o‘rishga turtki beruvchi 2026-yil “drayver” loyihalar uchun infratuzilmani yaratish.	1. Tuman (shahar) hokimliklari tomonidan hududning o‘rish imkoniyatidan kelib chiqib shakllantirilgan drayver loyihalarni ko‘rib chiqish. 2.Viloyat hokimliklari tomonidan shakllantirilgan loyihalarni ko‘rib chiqib, buyurtmachi korxonalar bilan ularning infratuzilma xarajatlarini ishlab chiqish,	2026-yil fevral 2026-yil 20-fevral	K.Taparov, Sh.Abduraxmonov, B.Gafurov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		loyihalarning samaradorligini o'rganib, iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishishni ta'minlash. 3. Ishlab chiqilgan drayver loyihalarning amalga oshirilishini va zarur infratuzilma bilan ta'minlanishini doimiy monitoring qilib borish.	2026-yil davomida	
Oziq-ovqat ishlab chiqarish dasturlari ijrosini muvofiqlashtirish, ichki iste'mol bozorida narxlar o'sishining oldini olish boshqarmasi.				
3.	Ichki bozorda un va non narxlari barqarorligini ta'minlash maqsadida har oyda 30 ming tonnadan kam bo'lmagan miqdorda unni birja savdolariga chiqarish.	Har oyda 30 ming tonnadan kam bo'lmagan miqdorda un mahsulotini birja savdolariga qo'yib borilishini ta'minlash.	2026-yil davomida	D.Karimov O.Usarov
4.	Ichki bozorda un va non narxlari barqarorligini ta'minlash maqsadida birja savdolariga har oyda 150 ming tonnadan kam bo'lmagan miqdorda bug'doy qo'yib borilishini ta'minlash.	Har oyda 150 ming tonnadan kam bo'lmagan miqdorda bug'doyning birja savdolariga qo'yib borilishini ta'minlash.	2026-yil davomida	D.Karimov O.Usarov
5.	Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha ishlab chiqarish va iste'mol qilishning maqsadli parametrlarini belgilash, taqchillik mavjud bo'lgan tovarlarni ichki bozorga kafolatli yetkazib berish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha choralar ko'rish.	1. Ijtimoiy ahamiyatga ega asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari balansini shakllantirish. 2. Asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari import-eksport ko'rsatkichlarini tahlil qilish. 3. Tahliliy ma'lumotlar asosida normativ hujjat loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2026-yil fevral	D.Karimov O.Usarov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
6.	Aholining oziq-ovqat xavfsizligini va ichki bozorlarda narxlar barqarorligini ta'minlash.	Ichki bozorlardagi narxlar dinamikasi, mahsulot yetishtirish prognozlari, ularning o'zgarishlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda har chorak yakuni bilan Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritib borish.	Har chorak yakuni bilan	D.Karimov O.Usarov
7.	Omborxonalar va sovitkichli sig'implarda saqlanayotgan mahsulotlarning monitoringini yo'lga qo'yish.	Mavjud qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari hajmi, zaxiralari, sovitkichli sig'implarning holati, ulardan foydalanish darajasi, ularning geografik joylashuvi, xizmat narxlari va savdo shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida monitoringini amalga oshiradigan "Omborxona" elektron platformasini ishga tushirish.	2026-yil davomida	D.Karimov O.Usarov D.Abidov
8.	Ichki bozorda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini doimiy monitoring qilib borish.	1. Sun'iy intellekt yordamida asosiy oziq-ovqat tovarlari bo'yicha real vaqt rejimida narxlarni monitoring qilish. 2. Mavjud xavf-xatarlarni oldindan aniqlagan holda tezkor choralar ko'rib borish.	2026-yil davomida	D.Karimov O.Usarov D.Abidov
9.	"Toshkent-Agro star" Parkent tumani "Qo'shqo'rg'on" mahallasida 1 gektar maydonda Xitoy texnologiyasi asosida 800 kVt quvvatli quyosh panellarini o'rnatish.	1. Loyihaning dastlabki texnik-iqtisodiy hisob-kitobini (TIH) ishlab chiqish. 2. Xitoy texnologiyasi asosida uskunalar spetsifikatsiyasini shakllantirish (panellar, invertorlar, transformator). 3. Quyosh panellari uchun metallokonstruksiyalarni o'rnatish.	2026-yil fevral	D.Karimov O.Usarov F.Muxiddinov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		4. Obyektni to'liq ekspluatatsiyaga qabul qilish va Avtomatlashtirilgan monitoring tizimini ishga tushirish.		
Yer islohotlari va hududlar master-rejalarini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish boshqarmasi.				
10.	Tuman markazlarini rivojlantirish, turizm, yo'l bo'yi va tumanlarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan master rejalar bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirib borish. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va bo'sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 8-iyuldagi PQ-245-sonli qaroriga asosan)	1. Tuman markazlarini rivojlantirish, turizm, yo'l bo'yi va tumanlarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan master rejalarini amalga oshirish holati bo'yicha monitoring qilish. 2. Aniqlangan muammolar bo'yicha mahalliy hokimliklarga tegishli ko'rsatma xatlarini chiqarish hamda hududlarga amaliy ishlarni tezlashtirish bo'yicha ko'mak berib borish. 3. Master rejalarini amalga oshirishni muhokama etish, muammoli masalalarni bartaraf etish bo'yicha taklif tayyorlash, mas'ullar faoliyatini tanqidiy ko'rib chiqib, Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish.	2026-yil davomida	Sh.Otaboyev
11.	BMT Taraqqiyot Dasturi ko'magida Quvasoy shahri va Nurobod tumani master rejalarini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish.	1. Loyiha kompaniyalari bilan Quvasoy shahri va Nurobod tumanida aholi hamda tadbirkorlar bilan uchrashuvlar tashkil etish. 2. Ishlab chiqilayotgan master rejalarining dastlabki loyihasini muhokama qilish. 3. Master rejalarini ishlab chiqishni yakunlash.	2026-yil davomida	Sh.Otaboyev

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
12.	2026–2030-yillarda yer resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish Strategiyasi loyihasini ishlab chiqish.	1. 2026–2030-yillarda yer resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish Strategiyasi loyihasini ishlab chiqish, bunda: a) yer huquqlarini himoya qilishni yaxshilash; b) yerlardan foydalanish va hududiy rejalashtirishni boshqarish; v) yer boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish; g) yer bozorini rivojlantirish; d) yerlarni baholashga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish; d) milliy fazoviy ma'lumotlar infratuzilmasini rivojlantirishni nazarda tutish. 2. Loyihani tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish. 3. Loyihani Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2026-yil davomida	Sh.Otaboyev
13.	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarini ijaraga berishning yangi tizimi bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish.	1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarini yangi tizim asosida auksion savdolariga chiqarilishini muvofiqlashtirish; 2. Ijaraga berilgan yer maydonlarida yuqori qo'shilgan qiymatga ega hamda eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga asoslangan sanoat usulidagi plantatsiyalar tashkil etishni muvofiqlashtirish; 3. Yangi tizim asosida ijaraga berilgan yer maydonlarining infratuzilmasini (sug'orish	2026-yil davomida	Sh.Otaboyev

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		tizimlari, elektr ta'minoti, ichki xo'jalik yo'llari) yaxshilash ishlarini tashkil etishni muvofiqlashtirish.		
Kichik va o'rta biznes rivojlanishini tahlil qilish, qo'llab-quvvatlash va davlat siyosatini muvofiqlashtirish departamenti.				
14.	Jahon bankining "B-Ready" hisoboti va metodologiyasi asosida respublikada biznes muhitini yaxshilash bo'yicha mas'ul vazirliklarni belgilash, xalqaro andoza va eng yaxshi amaliyot doirasida islohotlarni joriy etish yuzasidan tizimni joriy etish.	1. Vazirlar Mahkamasi huzurida "B-Ready islohotlarini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika komissiyasi"ni tashkil etish. Komissiyasiga quyidagi vazifalarni yuklash: B-Ready indikatorlari bo'yicha davlat siyosati va islohotlarni umumiy muvofiqlashtirish; mas'ul vazirlik va idoralarni belgilash hamda ularning vazifalarini aniqlash; xalqaro tashkilotlar, xususan, Jahon banki bilan doimiy muloqotni ta'minlash; islohotlar natijadorligini baholash va hisobot berish. har yili B-READY hisoboti natijalari asosida islohotlarni qayta ko'rib chiqish va yangilash. 2. B-READY indikatorlari bo'yicha mas'ul organlarni belgilash. 3. Monitoring, baholash va hisobot tizimini joriy qilish.	2026-yil aprel	T.Xusanov, A.Muydinov, A.Ishboboyev
15.	O'zbekiston Respublikasi Administratsiyasi rahbarining 2025-yil 17-noyabrdagi AF-89-	1. Ishchi guruh vakillari bilan birgalikda 50 ga yaqin vazirlik va idoralarning litsenziyalash,	2026-yil sentabr	T.Xusanov, D.Pardayev

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	son farmoyishi bilan tuzilgan ishchi guruh faoliyati doirasida amaldagi litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini o'rganish va ularni soddalashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.	ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini o'rganish. 2. O'rganish natijalariga ko'ra ishchi guruh vakillari bilan birgalikda ularni soddalashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishini ta'minlash.		
16.	“UzVC” milliy venchur fondi ko'magida xalqaro tan olingan venchur fondlari ta'sischilarini jalb etgan holda qo'shma venchur fondlarini tashkil etish, shuningdek, mentorlik va akseleratsiya dasturlarini davom ettirish.	1. Xalqaro darajadagi venchur fondlar bilan “UzVC” milliy venchur fondi o'rtasida hamkorlik o'rnatish va muzokaralar o'tkazish. 2. Xalqaro darajadagi venchur fondlar bilan “UzVC” milliy venchur fondi ishtirokida “1+1” tamoyili asosida teng ulush miqdorda ulush kiritish sharti bilan mahalliy venchur fondlar tashkil etish bo'yicha tegishli hujjatlarni imzolash. 3. Xalqaro darajadagi venchur fondlar va “UZVC” milliy venchur fondi ishtirokida “1+1” tamoyili asosida teng ulush miqdorda ulush kiritish sharti bilan mahalliy venchur fondlar tashkil etish.	2026-yil mart 2026-yil avgust 2026-yil noyabr	T.Xusanov, S.Tangriberdiyev, I.Usmonov
17.	JICAning “Bir qishloq – bir mahsulot” dasturi doirasida Kattaqo'rg'on va Farg'ona tumanlarida pilot loyihalarni ishga tushirish hamda mahalliy mahsulotlarni xalqaro standartlar va eksport talablariga yo'naltirish.	1. JICAning “Bir qishloq - bir mahsulot” dasturi doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni aniqlash bo'yicha xorijiy ekspertlarni jalb etish. 2. Dasturni amalga oshirish bo'yicha Konsepsiyasi loyihasini ishlab chiqish.	2026-yil aprel 2026-yil may	T.Xusanov, M.Abduraximov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		3. Konsepsiya loyihasi doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar turini belgilab olish va amaliy ishlarni boshlash. Dastur doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar va hududlar qamrovini oshirish bo'yicha muzokaralar olib borish.	2026-yil iyun	
18.	JICAning texnik hamkorlik dasturi doirasida har yili 10 ta tadbirkor ayollarni Yaponiyada o'quv kurslarida ishtirokini ta'minlash va tajribalar asosida hududlarda tadbirkor ayollarning moliyaviy savodxonligini oshirish.	1. O'quv kurslarida ishtirok etadigan salohiyatli nomzodlarni shakllantirish va 10 nafar tadbirkor ayollarning ro'yxatini Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligiga taqdim etish. 2. O'rganilgan yangi yondashuvlarni O'zbekistonda qo'llash yuzasidan taqdimot tayyorlash va yangi tajribalar asosida hududlardagi tadbirkor ayollarning chet el xizmat safari doirasida moliyaviy savodxonligini oshirish choralari ko'rish. 3. Olingan bilim va ko'nikmalarni tadbirkor ayollar doirasida keng yoritish va targ'ib qilish.	2026-yil iyul	T.Xusanov, R.Baxromova
19.	Osiyo taraqqiyot banki bilan Inclusive Microfinance Development dasturining 3-faza doirasida 100 mln doll. kredit liniyasini jalb etish bo'yicha muzokaralar o'tkazish va takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	1. Osiyo taraqqiyot banki bilan muzokaralar o'tkazish. 2. Loyihaga yangi moliya institutlarini jalb qilish.	2026-yil dekabr	T.Xusanov, B.Karimov, E.Obidinov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
20.	Respublikada tez va yuqori sur'atlarda o'sib borayotgan tadbirkorlarni qo'shma loyihalar orqali qo'llab-quvvatlash modeli va tizimli ishlaydigan mexanizmni ishlab chiqish.	1. Rahbarlar, hududlar va yo'nalishlar kesimida tadbirkorlik subyektlari ro'yxatini shakllantirish va amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirishlari uchun tegishli vazirlik va idoralarga taqdim etish. 2. "Chempion" tadbirkorlarning individual masalalarini manzilli hal etish hamda hamkorlikda aniqlangan tizimli masalalar yechimi yuzasidan takliflar tayyorlash. 3. Jamoatchilik kengashi a'zolari va tadbirkorlik subyektlari bilan ochiq muloqot shaklida uchrashuvlar o'tkazish. 4. "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ tadbirkorlik subyektlarini chempion tadbirkor toifasiga olib chiqishga ko'maklashish uchun ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyihalariga tijorat banklari orqali 10 milliard so'mgacha milliy va xorijiy valyutada kreditlar ajratish uchun resurs joylashtirish. 5. Tez va yuqori sur'atlarda o'sib borayotgan 50 nafar tadbirkorlarni Xalqaro moliya institutlar bilan birgalikda qo'shma loyihalar orqali qo'llab-quvvatlash.	Yil davomida	T.Xusanov, A.Muydinov, A.Kasimov
21.	Reja-grafikka muvofiq tadbirkorlik faoliyatining 10 dan ortiq sohasidagi 40 ga	1. Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan reja-grafikka muvofiq vazirlik va	Reja-grafikka muvofiq	T.Xusanov, D.Pardayev

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	yaqin amaldagi tartibga solish vositalarini Ex-post usulida baholash natijalariga xulosa taqdim qilish.	idoralar tomonidan amaldagi tartibga solish vositalarini baholashdan o'tkazish natijalarini o'rganish. 2. O'rganish natijalariga ko'ra, amaldagi tartibga solish vositalarini soddalashtirish yoki takomillashtirish bo'yicha vazirlik xulosalari taqdim qilinishini ta'minlash.		
22.	Kichik va o'rta biznes subyektlarining atrof-muhit, iqtisodiy va boshqaruv (ESG) yo'nalishidagi xalqaro standartlarga asoslangan hisobot yuritishini nazarda tutuvchi mexanizmni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish.	1. Germaniya xalqaro hamkorlik tashkilotining (GIZ) texnik ko'magi asosida atrof-muhit, iqtisodiy va boshqaruv (ESG) hamda mas'uliyatli biznes amaliyotlari (Responsible Business Conduct) yo'nalishi bo'yicha xalqaro konsultant kompaniyasini yollash. 2. Konsultantlar bilan birgalikda takliflarni shakllantirish va ESG hisobotini yuritishni nazarda tutuvchi mexanizmni ishlab chiqish.	2026-yil noyabr	T.Xusanov, A.Muydinov, F.Isayev
23.	Respublikadagi 40 tadan ortiq vazirlik va idoralar tomonidan ishlab chiqilgan qonunchilik hujjatlari loyihalarining tadbirkorlikka ta'sirini o'rganish hamda ulardagi biznes yuritishda ortiqcha tartibga solish vositalarining joriy etilishini bartaraf etish.	1. Vazirlik va idoralar tomonidan kiritilgan qonunchilik hujjati loyihalarini ortiqcha tartibga solish vositalarini aniqlash bo'yicha o'rganish. 2. O'rganish natijalariga ko'ra, aniqlangan ortiqcha tartibga solish vositalarini bartaraf etish bo'yicha vazirlik takliflari tayyorlanishini ta'minlash.	Yil davomida	T.Xusanov, D.Pardayev
24.	Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish Strategiyasi amalga oshirilishi yuzasidan	1.Strategiyani amalga oshirilishi yuzasidan Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'yicha	2026-yil iyul	T.Xusanov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'yicha Respublika Kengashi yig'ilishini tashkillashtirish.	Respublika Kengashi yig'ilishiga materiallar tayyorlash. 2.Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'yicha Respublika Kengashini o'tkazish.		
Xizmatlar sohasini rivojlantirish boshqarmasi.				
25.	1 mingta mahallani bog'laydigan 200 ta ko'chalarni gavjum ko'chalarga aylantirish.	1. Viloyat, tuman va shaharlar kesimida gavjum ko'chalarga aylantiriladigan ko'chalarni tanlab olish. 2. Gavjum ko'chalar tashkil etish maqsadida zarur infratuzilmani yaratish uchun talab etiladigan mablag'larning dastlabki hisob-kitoblarini shakllantirish. 3. Tanlangan ko'chalar va ularda infratuzilma yaratish uchun talab etiladigan mablag'larni Xalq deputatlari tuman va shahar kengashi tomonidan tasdiqlash. 4. Gavjum ko'chalarga aylantiriladigan ko'chalarda infratuzilma yaratishga qaratilgan loyihalarni bosqichma-bosqich moliyalashtirish ishlarini boshlash. 5. Loyihalar moliyalashtirilishi, loyiha doirasida amalga oshirilgan ishlar hamda loyihaning keyingi bosqichlari bo'yicha monitoring olib borish.	2026-yil fevral 2026-yil mart 2026-yil doimiy	B.Shukurov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		6. Loyihalarni belgilangan muddatlarda ishga tushirish choralari ko'rish.	2026-yil dekabr	
26.	Turizm salohiyati yuqori bo'lgan 150 ta mahallada mehmon uylari, savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalarini barpo etish.	1. Viloyat, tuman va shaharlar kesimida turizm salohiyati yuqori bo'lgan mahallalarni tanlab olish. 2. Turizm salohiyati yuqori bo'lgan mahallalarda mehmon uylari, savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalarini barpo etish maqsadida zarur infratuzilmani yaratish uchun talab etiladigan mablag'larning dastlabki hisob-kitoblarini shakllantirish. 3. Tanlangan mahallalar va ularda infratuzilma yaratish uchun talab etiladigan mablag'larni Xalq deputatlari tuman va shahar kengashi tomonidan tasdiqlash. 4. Turizm salohiyati yuqori bo'lgan mahallalarda zarur infratuzilma yaratishga qaratilgan loyihalarni bosqichma-bosqich moliyalashtirish ishlarini boshlash. 5. Loyihalar moliyalashtirilishi, loyiha doirasida amalga oshirilgan ishlar hamda loyihaning keyingi bosqichlari bo'yicha monitoring olib borish.	2026-yil fevral 2026-yil mart 2026-yil doimiy 2026-yil	B.Shukurov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		6. Loyihalarni belgilangan muddatlarda ishga tushirish choralarini ko'rish.	dekabr	
27.	206 ta sohil va 500 ta yo'l bo'yida servisni rivojlantirish.	1. Viloyat, tuman va shaharlar kesimida sohil va yo'l bo'yida servis rivojlantiriladigan mahallalarni tanlab olish. 2. Sohil va yo'l bo'yida servis rivojlantiriladigan mahallalarda zarur infratuzilmani yaratish uchun talab etiladigan mablag'larning dastlabki hisob-kitoblarini shakllantirish. 3. Tanlangan mahallalar va ularda infratuzilma yaratish uchun talab etiladigan mablag'larni Xalq deputatlari tuman va shahar kengashi tomonidan tasdiqlash. 4. Turizm salohiyati yuqori bo'lgan mahallalarda zarur infratuzilma yaratishga qaratilgan loyihalarni bosqichma-bosqich moliyalashtirish ishlarini boshlash. 5. Loyihalar moliyalashtirilishi, loyiha doirasida amalga oshirilgan ishlar hamda loyihaning keyingi bosqichlari bo'yicha monitoring olib borish. 6. Loyihalarni belgilangan muddatlarda ishga tushirish choralarini ko'rish.	2026-yil fevral 2026-yil mart 2026-yil doimiy 2026-yil dekabr	B.Shukurov
II. Vazir o'rinbosari – A.Y.Xaydarov				

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
Davlat budjeti siyosati departamenti.				
28.	Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining 2025-yildagi ijrosi bo'yicha hisobotini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish hamda tashqi auditdan o'tkazish va baholash ishlarini tashkil etish.	1. Vazirlikning tegishli tarmoq departamentlari va mustaqil boshqarmalari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasi respublika va mahalliy budjetlarning hamda davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining 2025-yil ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni tayyorlash; 2. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining 2025-yil ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish; 3. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining 2025-yillik ijrosi to'g'risidagi hisobot bo'yicha tashqi auditni va baholashni amalga oshirish jarayonida ishtirok etish.	2026-yil aprel, may	Sh.Muxamedov
29.	Kelgusi o'rta muddatli davr uchun Davlat budjetining asosiy parametrlarini shakllantirish.	Kelgusi o'rta muddatli davr uchun ishlab chiqiladigan Fiskal strategiyada aks ettirish uchun kelgusi o'rta muddatli davr uchun Davlat budjetining asosiy parametrlarini shakllantirish.	2026-yil may	Sh.Muxamedov
30.	Kelgusi o'rta muddatli davr uchun Fiskal strategiyani ishlab chiqish va O'zbekiston	1. Xalqaro ekspertlar bilan birgalikda Fiskal strategiyani takomillashtirish bo'yicha taklif ishlab chiqish va muhokama qilish.	2026-yil iyun	Sh.Muxamedov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish.	2. Fiskal strategiya loyihasini ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish.		
31.	Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlariga va budjet mablag'larini oluvchilarga respublika budjetidan ajratiladigan budjet mablag'larining cheklangan miqdorlarini yetkazish.	Fiskal strategiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanganidan so'ng tegishli budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarga Respublika budjetidan ajratiladigan mablag'larining cheklangan miqdorlarini (shuningdek, kapital qo'yilmalar bo'yicha) yetkazish.	2026-yil iyun	Sh.Muxamedov
32.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat budjeti to'g'risidagi qonun loyihasini va budjetnomani kiritish.	Davlat budjeti to'g'risidagi qonun loyihasini va Budjetnomani Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish. Davlat budjeti to'g'risidagi qonun loyihasini va Budjetnomani Hisob palatasi tomonidan ko'rib chiqish jarayonida qatnashish va himoya qilish.	2026-yil sentabr 2026-yil oktabr	Sh.Muxamedov
33.	Davlat budjeti va Davlat maqsadli jamg'armalari daromadi va xarajati ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlarni chop etib borish.	1. Davlat budjeti daromadlar va xarajatlari ijrosi bo'yicha ma'lumotlarni taqdimot va infografika ko'rinishida ishlab chiqib, vazirlik rasmiy veb-saytlarida joylashtirish. 2. Davlat budjeti va Davlat maqsadli jamg'armalari daromadi va xarajati ijrosini ochiq ma'lumotlar (data.egov.uz) portaliga Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni joylashtirib borish.	Har oy yakuni bilan keyingi oyning 10-sanasiga qadar Har chorak yakuni bilan keyingi oyning 25-sanasiga qadar	Sh.Muxamedov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
34.	Budjet tashkilotlarining kelgusi o'rta muddatli davr uchun budjet so'rovini shakllantirish jarayonini raqamlashtirish.	Budjet so'rovi modulini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan texnik topshiriqlarni amalga oshirish hamda "Uzasbo-2" dasturiy majmuasi va "DMBAT-2" axborot tizimini integratsiya qilish ishlarini tashkillashtirish va yakuniga yetkazish.	2026-yil aprel	Sh.Muxamedov
35.	Budjet tashkilotlarining elektron pasporti bo'yicha "E-pasport" platformasini ishga tushirish.	1. "E-pasport" platformasida ma'lumotlar bazasini shakllantirish ishlarini tashkillashtirish; 2. Ayrim vazirlik va idoralarning ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilish ishlarini yakunlash. 3. Ushbu platformani vazirlik rahbariyatiga taqdimot qilish.	2026-yil may 2026-yil iyun	Sh.Muxamedov
36.	Davlat budjeti va budjet tashkilotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida ko'rish imkoniyatini beruvchi "Onlayn platforma"ni (dashboard) ishlab chiqish.	1. Platformada quyidagi ma'lumotlarni aks ettirish bo'yicha texnik topshiriqni ishlab chiqish; 2. Texnik topshiriq asosida yaratiladigan "Onlayn platforma"ni (test rejimida) vazirlik rahbariyatiga taqdimot qilish.	2026-yil aprel	Sh.Muxamedov
37.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining 2026-yil har choraklik ijrosi bo'yicha ma'lumotlar kiritish.	1. Vazirlikning tegishli tarmoq departamentlari va mustaqil boshqarmalari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasi respublika va mahalliy budjetlarning hamda davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining 2026-yil har choraklik ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash;	Belgilangan muddatlarda 2026-yil	Sh.Muxamedov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		2. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining 2026-yil har choraklik ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish; 3. Davlat budjetining va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining 2026-yil har choraklik ijrosi to'g'risidagi hisobotni tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarida muhokama qilish jarayonlarida ishtirok etish.	may, avgust, noyabr Belgilangan muddatlarda	
38.	2025/2026-o'quv yili doirasida "Mening maktabim" loyihasining 2-bosqichini o'tkazish.	1. "Ochiq budjet" portalida 3 va 5-toifa tumanlarda ovoz berish jarayonlarini tashkil etish hamda g'oliblarni aniqlash, OAVda e'lon qilish. 2. "Mening maktabim" loyihasi bo'yicha qayd etilgan natijalar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish.	2026-yil fevral	Sh.Muxamedov
39.	"Budjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"ga va Davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalariga o'zgartirishlar kiritib borish.	1. 2026-yil davomida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga asosan Budjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligining buyrug'i loyihasini ishlab chiqish va Adliya vazirligiga kiritish. 2. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha Iqtisodiyot va	2026-yil iyun va dekabr 2026-yil sentabr	Sh.Muxamedov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		moliya vazirligining buyrug'i loyihasini ishlab chiqish va Adliya vazirligiga kiritish.		
40.	"Davlat ichki nazorati va ichki audit to'g'risida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqish.	1. Qonun loyihasini ishlab chiqish va manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish; 2. Qonun loyihasini jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtirish va Adliya vazirligidan huquqiy ekspertizadan o'tkazish; 3. Qonun loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2026-yil fevral 2026-yil mart 2026-yil may	Sh.Muxamedov
Qishloq xo'jaligidagi islohotlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash departamenti.				
41.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilab berilgan budget mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlari ijrosini monitoring qilish.	1. Qishloq xo'jaligi vazirligi va tizim tashkilotlarining maqsadli indikatorlari ijrosini doimiy monitoring qilish. 2. Maqsadli indikatorlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga ko'rib chiqish uchun taqdim etib borishda ishtirok etish.	Doimiy Har chorak keyingi oyi 20-sanasi	A. Zaxidov, A. Isroilov
42.	Paxta va g'alla hosilini yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy qilish.	1. O'z mablag'lari yoki tijorat kreditlari hisobidan g'alla yetishtirib, birja savdolarida yoki davlat resursi uchun realizatsiya qilgan qishloq xo'jaligi korxonalariga mahsulot qiymatining 10 foizi miqdorida subsidiya ajratish tartibini tasdiqlash yuzasidan tegishli hujjat loyihasini ishlab chiqish; 2. Yil davomida imtiyozli kredit limitining 50 foizgacha qismidan foydalangan paxta	2026-yil fevral 2026-yil fevral	A. Zaxidov, A. Isroilov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		yetishtiruvchi fermer xo'jaliklariga belgilangan tartibda sotilgan paxta qiymatining 5 foizi miqdorida subsidiya ajratish tartibini tasdiqlash yuzasidan tegishli hujjat loyihasini ishlab chiqish; 3. Ishlab chiqilgan hujjatlar loyihalarini Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2026-yil fevral	
43.	O'z mablag'i hisobidan paxta xomashyosini yetishtirgan hamda xarid qilgan korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash.	1. Sohaga o'z mablag'i bilan ishtirok etayotgan korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari ko'rib borish. Bunda, "Subsiya.mf.uz" portali orqali taqdim etiladigan arizalarga muvofiq: o'z mablag'lari hamda tijorat kreditlari hisobidan paxta xomashyosini yetishtirgan holda birjada sotganda rasmiylashtirilgan elektron hisobvara-q-faktura qiymatining 10 foizi miqdorida subsidiya ajratish; 2. Paxta-to'qimachilik klasterlari hamda ip-kalava ishlab chiqarish zanjiriga ega to'qimachilik korxonalariga o'z mablag'lari hisobidan xarid qilingan paxta xomashyosi qiymatining 10 foizi miqdorida subsidiya ajratishni ta'minlash.	Yil davomida 2026-yil davomida	A. Isroilov, A. Zaxidov
44.	Davlat resursiga xarid qilingan bug'doy hajmi bo'yicha taklif tayyorlash.	1. Mintaqa mamlakatlarida 2026-yil hosilidan yig'ib olinishi kutilayotgan bug'doy miqdori va yig'im-terim davrida kutilayotgan bug'doy qoldig'i bo'yicha o'rganishlar o'tkazish;	2026-yil Iyun oyi davomida	A. Isroilov, A. Zaxidov, O. Usarov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		2. Respublikada 2026-yilda yig'ib olinishi kutilayotgan bug'doyning prognoz hajmlari hamda 1-iyul holatiga kutilayotgan davlat resursidagi bug'doy qoldig'ini prognozlash; 3. O'rganishlar asosida 2026-yil hosilidan davlat resursiga xarid qilinadigan bug'doy miqdori bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.		
45.	Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida O'zbekiston qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'p tomonlama muzokaralarni olib borish	1. Tashkil etiladigan Ishchi guruhi yig'ilishlari doirasida qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'ptomonlama uchrashuvlarda ishtirok etish; 2. JST a'zolari tomonidan O'zbekiston qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash majburiyatlari yuzasidan yo'llangan so'rovlarga tegishli taklif pozitsiyalarini ishlab chiqish.	2026-yil davomida	A. Zaxidov
Buxgalteriya hisobi metodologiyasi va auditorlik faoliyatini tartibga solish boshqarmasi.				
46.	"Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahriri loyihasini qabul qilish	Qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlisda ko'rib chiqish, muhokama qilish jarayonida ishtirok etish hamda loyiha bo'yicha tegishli ma'lumotlarni tayyorlash.	2026-yil davomida	O. Barakayev
47.	Moliyaviy hisobotning milliy standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish.	Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini (BHMS) xalqaro talab va standartlarga asosan qayta ko'rib chiqish hamda ularni unifikatsiya qilish orqali Kichik va o'rta biznes uchun MHXSga uyg'unlashgan Moliyaviy hisobotning milliy standartlari loyihalarini ishlab chiqish.	2026-yil davomida	O. Barakayev

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
48.	Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar Reyestrini yuritish va unga zarur o'zgartirishlar kiritish.	1. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasi mezonlariga javob beradigan tashkilotlar ro'yxatini shakllantirish va unga zarur o'zgartirishlarni kiritib borish. 2. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reyestrini yuritish hamda Reyestrni Hukumat portali yagona platformasi hamda Ochiq ma'lumotlar portaliga joylashtirish.	2026-yil 1-iyulga qadar	O. Barakayev
49.	O'zbekistonda auditorlik faoliyatini 2026–2030-yillarda rivojlantirish konsepsiyasi loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	O'zbekistonda auditorlik faoliyatini 2026–2030 -yillarda rivojlantirish konsepsiyasi loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2026-yil 1-mart	O. Barakayev
50.	Auditorlik faoliyatini va auditorlik bozorini tartibga solish.	1. Auditorlik tashkilotlari va auditorlar Reyestrini yuritish (yangilab borish) va vazirlik saytiga e'lon qilish. 2. Auditorlik xizmatlari bozorining choraklik va yillik tahlili va hisobotini e'lon qilish; 3. Auditorlik tashkilotlari bilan profilaktik ishlarni tashkil etish;	2026-yil davomida	O. Barakayev
51.	Auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish bo'yicha xalqaro xorijiy mamlakatlarda tajriba o'tash va o'rganish asosida tavakkalchilik tahlili bo'yicha yuqori tavakkalchiligi bo'lgan auditorlik tashkilotlari ishini tashqi nazoratdan o'tkazish ishlarini tashkil etish.	1. "Auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazoratdan o'tkazishda "xavfni tahlil etish" tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi nizom loyihasini ishlab chiqish;" 2. Tavakkalchilik tahlili bo'yicha yuqori tavakkalchiligi bo'lgan auditorlik tashkilotlari ishini tashqi nazoratdan o'tkazish.	2026-yil 1-mart 2026-yil davomida	O.Barakayev, Maxsus ruxsatnomaga ega xodimlar

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		3. Auditorlik tashkilotlari tomonidan eng ko'p sodir etiladigan qoidabuzarliklar ro'yxatini shakllantirish.		
Soliq-bojxona siyosati va daromadlar prognozi departamenti.				
52.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrdagi PF-246-son Farmonidan kelib chiqib, ayrim normativ hujjatlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi Qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2026-yil 25-fevral	Sh.Safarov
53.	Yashirin iqtisodiyot ulushini sohalar va hududlar kesimida qisqartirish bo'yicha Maxsus komissiya faoliyatini tashkil etish.	Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'yicha Maxsus komissiya faoliyatini tashkil etish. Bunda: 1. Hududlar va sohalar kesimida yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish chora-tadbirlarini belgilash; 2. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha vazirlik, idora va tashkilotlar, shuningdek, hududiy komissiyalar tomonidan amalga oshirilgan ishlar sarhisobini o'tkazish.	Yil davomida	Sh.Safarov
54.	Soliq madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini qabul qilish.	Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlarining soliq madaniyati va soliq to'lash mas'uliyatini oshirish bo'yicha idoralararo media-rejani tasdiqlash.	2026-yil 15-aprel	Sh.Safarov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
55.	Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha hududlarda olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan hududlarga xizmat safariga chiqish.	Respublika hududlarida yashirin iqtisodiyotni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligini o'rganish hamda kelgusidagi ishlar samaradorligini oshirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda viloyatlarga xizmat safarlariga chiqish.	Yil davomida	Sh.Safarov
56.	Yashirin iqtisodiyot va uning salbiy oqibatlarini bo'yicha aholi va keng ommaga ma'lumot berib borish.	Yashirin iqtisodiyot bo'yicha joriy holat, yashirin iqtisodiyot ulushi yuqori bo'lgan sohalar hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan keng qo'llanib kelinayotgan sxemalar yuzasidan axborot kompaniyalarini o'tkazish. Bunda, ommaviy axborot vositalariga maqolalar va tahliliy ma'lumotlarni e'lon qilib borish.	Yil davomida	Sh.Safarov
57.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi "Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-247-son qarori natijadorligini tahlil qilish.	1. Mazkur qarorning AOS va QQS to'lovchilar soniga hamda soliq tushumlariga ta'sirini baholash. 2. Tahlillar natijalariga ko'ra tizim samaradorligini oshirish, jumladan, korxonalarning bo'linish qoidalarini belgilashga qaratilgan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2026-yil 1-iyul	Sh.Safarov
58.	Majburiy raqamli markirovkalash tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.	1. Majburiy raqamli markirovkalash tizimi joriy etilgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar	2026-yil 10-avgust	Sh.Safarov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		va yagona operator "CRPT Turon" MCHJ vakillari amaliyotdagi muammolarni o'rganish. 2. Amaldagi muammolarni bartaraf etish hamda markirovkalash tizimini takomillashtirishga qaratilgan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.		
59.	Bojxona ma'murchiligini soddalashtirish va takomillashtirish yuzasidan o'rganishlar o'tkazish.	Bojxona ma'murchiligini takomillashtirish va bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarini soddalashtirish yuzasidan xalqaro standartlar va ilg'or tajribalarni o'rganish, shuningdek, o'rganish natijalari bo'yicha asoslangan takliflarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Yil davomida	Sh.Safarov
60.	Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish. Soliq va budjet siyosatining 2027-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Qonun loyihasini ishlab chiqish.	1. Soliq tizimi barqarorligini ta'minlash, investitsiyalarni rag'batlantirish, soliq qonunchiligidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish, daromadlarni oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish; 2. Soliq islohotlarining budjet daromadlariga ta'sirini baholash va takliflarni kelishish. 3. Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi doirasida Qonun loyihasini puxta ishlab chiqish, kelishish va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish.	2026-yil 1-noyabr 2026-yil 1-dekabr 2026-yil 25-dekabr	Sh.Safarov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
61.	Har oy yakuni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga Davlat budjeti daromadlarining oylik ijrosi bo'yicha axborot kiritish.	Tahliliy ma'lumotlar va axborot xati tayyorlash hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritish.	Yil davomida	Sh.Safarov
62.	2026-yil uchun Davlat budjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlarini hududlar va choraklar kesimida taqsimoti loyihasini tasdiqlash uchun kiritish.	1. Davlat budjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlarini hududlar va choraklar kesimida taqsimlash uchun tegishli hisob-kitoblar tayyorlash va Soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi bilan kelishish; 2. Kelishilgan prognoz ko'rsatkichlarni rahbariyatga tasdiqlash uchun kiritish.	2026-yil 25-dekabr	Sh.Safarov
III. Vazir o'rinbosari - O. Fazilkarimov				
Aholini ijtimoiy himoya qilish sohasini moliyalashtirish hamda ularga subsidiya, ssuda va grantlar ajratilishining samaradorligini baholash va muvofiqlashtirish boshqarmasi.				
63.	Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi ayrim budget tashkilotlarini saqlash xarajatlarini moliyalashtirish.	1. Joriy yil uchun tuzilgan shtatlar jadvalini tahlil qilish, vakant lavozimlar hisobiga bo'shaydigan mablag'larni maqbullashtirish. 2. Joriy yil xarajatlar smetasida boshqa (4-guruh) xarajatlar uchun ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanilishini ta'minlash.	2026-yil davomida	I.Nabijanov
64.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-dekabrdagi "Aholining ehtiyojmand qatlamlariga hududlarda kompleks ijtimoiy va reabilitatsiya xizmatlarini	1. Andijon shahri va Toshkent shahri Shayxontohur tumanida tashkil etilgan hududiy markazlar tajribasi asosida 2026-2027-yillar davomida Respublika bo'yicha 20 ta hududiy	2026-yil IV chorak	I.Nabijanov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-383-son qarori ijrosini ta'minlash.	markaz faoliyatini bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish. 2. Shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazish hamda talab qilingan mablag'larni moliyalashtirish.		
65.	Nogironligi bo'lgan muhtoj shaxslarni reabilitatsiya xizmatlari bilan 20 foiz qamrab olish.	1. Erta reabilitatsiya xizmatlarini joriy qilishni nazarda tutuvchi Prezident Farmoni loyihasini ishlab chiqish. 2. Farmonda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun talab qilinadigan mablag'larni moliyalashtirish.	2026-yil yakuniga qadar	I.Nabijanov
66.	Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylarni davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida modernizatsiya qilish va boshqaruvga berish.	1. Urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylarni davlat xususiy-sherik boshqaruviga berishda belgilangan tartibda tender savdolarida qatnashish. 2. Bitta yo'llanma narxi budjetda nazarda tutilgan narxdan oshmasligini ta'minlash.	2026-yil yakuniga qadar	I.Nabijanov
67.	Aholiga ajratilayotgan 70 dan ortiq moliyaviy yordamlarni yagona platformada jamlash, ariza berish va ko'rib chiqishni avtomatik skoringdan o'tkazish hamda ssudalarni onlayn qaytarish tizimini joriy etish orqali shaffofligini oshirish.	1. Subsidiya.mf.uz platformasiga integratsiya qilinmagan moliyaviy yordamlarning ro'yxatini shakllantirish. 2. Shakllantirilgan ro'yxat asosida mas'ul vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda texnik talablarni ishlab chiqish va amalga oshirish. 3. Sun'iy intellekt yordamida ajratilayotgan subsidiya, ssuda, grantlarning turlari va hududlari	2026-yil davomida	I.Nabijonov, O.Sultonov, Axborot tehnologiyalari markazi

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		kesimida strukturalangan xarajatlarni shakllantirish.		
68.	O'zbekiston Respublikasida davlat budjeti mablag'lari hisobidan mulkchilik shakllaridan qat'i nazar barcha tashkilot va idoralarda mehnatga layoqatsizlik nafaqalari to'lovlarini joriy qilish.	1. Mehnatga layoqatsizlik nafaqalarini shakllantirishda alohida maxsus axborot modulini yaratish. 2. Mazkur axborot modulini UzASBO-2 dasturiy majmuaga integratsiya qilish orqali nafaqalarni hisoblashni va to'lovlarni amalga oshirishni avtomatlashtirish. 3. Sun'iy intellekt yordamida ajratilayotgan subsidiya, ssuda, grantlarning turlari va hududlari kesimida strukturalangan xarajatlarini shakllantirish.	2026-yil iyul	I.Nabijonov, O.Sultonov, Axborot tehnologiyalari markazi
69.	Davlat budjetidan aholini ijtimoiy himoya qilish va bandligini ta'minlash sohasiga ajratilayotgan moliyaviy ko'maklarni o'rganish va samaradorligini baholash.	1. Boshqarma tomonidan moliyalashtiriladigan jamg'armalar tomonidan ajratilayotgan moliyaviy ko'maklar ro'yxatini shakllantirish. 2. Hududlarga chiqib, moliyaviy ko'maklar samaradorligi maqsadli ajratilganligini o'rganish. 3. O'tkazilgan o'rganishlar bo'yicha hisobotlar tayyorlash va rahbariyatga taqdim etish.	2026-yil oktabr	I.Nabijonov, O.Sultonov,
70.	Kambag'al oila reyestrining qizil toifalaridagi oilalarga quyosh panellari o'rnatish.	1. Kambag'al oila reyestrining qizil toifalaridagi oilalardan quyosh panellari o'rnatiladigan 390 ta oila ro'yxati shakllantiriladi. 2. O'rnatiladigan quyosh panellarining hajmi va xarajatlar smetasi shakllantiriladi.	2026-yil yakuniga qadar	I. Nabijanov, J. Niyazov,

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		3. Talab qilingan mablag'lar Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasidan mas'ul vazirlik va idoralarga moliyalashtiriladi.		
71.	Vazirlik va idoralar bilan birga islohotlarni nazarda tutuvchi loyihalarni ishlab chiqish.	1. Vazirlik va idoralar tomonidan kiritilgan loyihalar yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	2026-yil davomida	I. Nabijanov, A. Valijonov, J. Niyazov
72.	"Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali yuklatilgan topshiriq va vazifalar ijrosini ta'minlanish.	"Ijro.gov.uz" elektron tizimida yuklatilgan topshiriq va vazifalarning ijrosini o'z vaqtida samarali ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2026-yil davomida	I. Nabijanov, A. Valijonov, J. Niyazov
Ijtimoiy sohalar iqtisodiyoti va moliyasi departamenti.				
73.	Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (MTT) bolalar qatnovini shaxsni biometrik identifikatsiya qilish texnologiyasi (Face-ID) orqali nazorat qilish va elektron tabelni joriy etish tizimini to'liq yakuniga yetkazish.	1. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining mas'ul xodimlari bilan birgalikda Toshkent shahri tajribasini o'rganib chiqish. 2. O'rganish natijalariga ko'ra tizimni joriy etish bilan bog'liq xarajatlarni o'rganish hamda moliyalashtirish manbalariga aniqlik kiritish. 3. Toshkent shahri tajribasidan kelib chiqib respublikadagi barcha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bolalar qatnovini shaxsni biometrik identifikatsiya qilish texnologiyasi (Face-ID) orqali nazorat qilish va elektron tabelni joriy etish tizimini to'liq yakuniga yetkazish.	2026-yil mart	A. Eshchanov, F. Zokirov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
74.	Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oziq-ovqat narxlarini tartibga solish hamda xarajatlarini avtomatik hisob-kitob qilish tizimini joriy etish.	1. Davlat MTTda tarbiyalanuvchilarni "Yagona mavsumiy taomnoma" asosida bir tarbiyalanuvchi uchun tasdiqlangan kunlik ovqatlantirish xarajati orqali ovqatlantirish tizimini tahlil qilish. 2. Davlat MTTda joriy etilgan bolalar qatnovini shaxsni biometrik identifikatsiya qilish texnologiyasi (Face-ID) orqali oziq-ovqat xarajatlarini avtomatik hisob-kitob qilish tizimini joriy qilish.	2026-yil may-iyun 2026-yil oktabr	A. Eshchanov, F. Zokirov
75.	Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ajratilayotgan subsidiyalarni muntazam tahlil qilib borish.	1. DXSH asosidagi va boshqa nodavlat MTTlar uchun subsidiyalar va kompensatsiyalarning qat'iy miqdorlarini Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan birgalikda joriy yil aprel oyidan keyingi yilning mart oyigacha bo'lgan muddat uchun tasdiqlash. 2. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan har oy uchun taqdim etiladigan davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ajratilayotgan subsidiya talabnomalarni ko'rib chiqib, tahlil qilgan holda ajratilishini ta'minlash.	2026-yil mart Yil davomida	A. Eshchanov, F. Zokirov
76.	Davlat buyurtmachi – tamoyili asosida nodavlat maktablar tarmog'ini kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	1. Aholi soni o'sib borayotgan hududlar hamda aholining to'lov qobiliyatidan kelib chiqib nodavlat maktablarni tashkil etish bo'yicha takliflar tayyorlash: Bunda:	2026-yil may	A. Eshchanov, F. Zokirov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
		maktabgacha ta'lim tashkiloti, umumta'lim muassasasi va kasbiy ta'lim tashkilotlarining bo'sh bino-inshootlari va yer maydonlarini uzoq muddatga "0" nol qiymatda ijaraga berish; nodavlat maktab tashkil etgan tadbirkorlarga subsidiyalar ajratish mexanizmlarini ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan takliflarni vazirlik rahbariyatiga kiritish.		
77.	"Vision-2030" loyihalari ijrosini doimiy monitoring qilib borish.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan birgalikda "Vision-2030" loyihalari ijrosini doimiy monitoring qilib borish hamda rahbariyatga takliflar kiritish.	Yil davomida	A. Eshchanov, F. Zokirov
78.	"Toza qo'llar" dasturi ijrosini doimiy o'rganish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish.	1. "Toza qo'llar" dasturi bo'yicha 2026-yil budjet parametrlarida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga sanitariya-gigiyena vositalarini xarid qilish uchun ajratilgan mablag'lar o'z vaqtida moliyalashtirilib borilishini nazoratga olish. 2. Ushbu ajratilgan mablag'lar hisobiga xarid qilingan sanitariya-gigiyena vositalaridan maqsadli foydalanilayotganligini joylarga chiqqan holda o'rganishlar o'tkazish. 3. O'tkazilgan o'rganishlar natijasi bo'yicha tegishli ma'lumotlarni vazirlik rahbariyatiga kiritib borish.	Yil davomida	A. Eshchanov, F. Zokirov

T/p	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
